

KOREYS VA O'ZBEK MAQOL VA MATALLARIDA "OTA-ONA" OBRAZINING AKS ETISHI

Ermetova Jamila Ismailovna

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

UrDU "Koreyashunoslik va til ta'limi" loyihasi rahbari

jamilaismailovnae@gmail.com

Charos Matchanova Shakirjon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili yo'nalishi bakalavriat talabasi

charosmatchanova02@gmail.com

Abu Rayhin Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek va koreys xalq maqollarida ota-onada obrazi qanday aks etishi tahlil qilinadi. Har ikkala xalqning og'zaki ijodida ota-onaga hurmat, tarbiya va minnatdorchilik tushunchalari muhim o'rinn tutadi. Shuningdek ushbu maqola koreys va o'zbek maqollarini taqqoslash orqali madaniy o'xshashliklar va farqlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ota-ona, oilaviy qadriyatlar, xalq donishmandligi, farzandlik burchi, tarbiya.

ABSTRACT

The present article conducts an analysis of how the image of parents is reflected in Uzbek and Korean folk proverbs. In the oral traditions of both peoples, the concepts of respect for parents, upbringing, and gratitude hold significant importance. The article further aims to identify cultural similarities and differences by comparing Korean and Uzbek proverbs, thereby highlighting the educational significance of folk oral traditions.

Keywords: Parents, family values, folk wisdom, filial duty, upbringing.

주석: 본 논문에서는 우즈베크와 한국의 민속 속담에서 부모의 이미지가 어떻게 반영되는지 분석합니다. 두 민족의 구술 창작물에서 부모에 대한 존경, 교육, 감사의 개념은 중요한 위치를 차지합니다. 또한 본 논문은 한국과 우즈베크 속담을 비교하여 문화적 유사점과 차이점을 식별하는 데 중점을 두며, 민속 구술 창작물의 교육적 중요성을 밝히고자 합니다.

키워드: 부모, 가족 가치, 민속 지혜, 효도, 교육.

KIRISH

Bilamizki, maqollar va matallar xalq donishmandligining eng muhim vositasi bo'lib, nutqni yanada boyitishga va nutqni yanada chiroyli ko'rsatishga yordam

beradigan xalq og‘zaki ijodi na‘munasi hisoblanadi shuningdek, insoniy tajriba va qadriyatlar haqida umumiy tushunchalarni namoyon qiladi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, “maqollar to‘plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati”.¹

Har bir xalqning og‘zaki ijodi, xususan, maqollari uning madaniyati, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi. Xalq maqollari asrlar davomida shakllangan hayotiy tajriba, urf-odat va an’analarning ifodasi bo‘lib, ular jamiyatning asosiy tushunchalari haqida muhim ma’lumot beradi. Ayniqsa, ota-onada obrazi ko‘plab xalqlarning maqollarida alohida o‘rin egallaydi. Chunki ota-onada – inson hayotining eng muhim qismi bo‘lib, tarbiya, mehr-muhabbat, farzandlik burchi va hurmat kabi tushunchalar bevosita ular bilan bog‘liqdir. Koreys va o‘zbek xalqlari qadimdan oilaviy qadriyatlarga katta ahamiyat berib kelgan. Har ikkala jamiyatda ham ota-onaga hurmat, itoat va minnatdorchilik eng muhim fazilatlar hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar xalq maqollarida keng aks etgan bo‘lib, ular orqali ota-onaning oiladagi o‘rnini farzandning vazifalari va jamiyatdagagi o‘rnini tushunish mumkin. Masalan, o‘zbek maqollaridan "Ona duosi bilan farzand kamol topar" yoki koreys maqollaridan "부모의 덕은 하늘보다 높다" (Ota-onaning fazilati osmondan baland) kabi iboralar ota-onaning farzand hayotidagi beqiyos ahamiyatini ifodalaydi.

Ushbu maqolada koreys va o‘zbek xalq maqollarida ota-onada obrazining ifodalanishi, o‘xshashlik va farqlar tahlil qilinadi. Maqolada ota-onaga bo‘lgan hurmat va minnatdorchilik, ota-onaning duosi va tarbiyasi, jamiyatda ota-onaning mavqeい kabi jihatlar asosida maqollar qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari koreys va o‘zbek jamiyatlarida oilaviy qadriyatlarning qanday aks etishini tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Tilshunos olim Boldirev dunyo madaniyatlarini o‘tmishga, hozirgi kunga va keljakka yo‘nalishiga qarab uch turga bo‘ladi. Birinchi guruh madaniyatlarini “konservativ” madaniyatlar sifatida tasvirlanib, ularda an’analarga katta ahamiyat beriladi. Ingliz, rus, xitoy, yapon va fransuz madaniyatlarini bunday madaniyat turiga misol bo‘la oladi. Hozirgi kunga yo‘nalgan madaniyat vakillari bugungi kun bilan yashashadi. Ular ta’sirchan bo‘lib, qarorlarni “shu yerda, hozirning o‘zida” qabul qilishadi. Ushbu madaniyatlarga Lotin Amerika mamlakatlari, filippinliklar, irlandiyaliklar kiradi. Bunday guruhga turklarni ham kiritish mumkin. Shimoliy amerikaliklar esa keljakka yo‘nalgan madaniyatlar sirasiga kiradi. Bunday madaniyatlarda rivojlanishga, keljak uchun zaxira jamg‘arishga katta ahamiyat

¹ Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 С.

qaratiladi.² Ishimizda ko'rib o'tayotganimiz koreys va o'zbek xalqlari madaniyatini "konservativ" madaniyatlar guruhiba kiritishimiz mumkin. Shu bois har ikki xalq maqollarida umuminsoniy qadriyatlar, fazilatlar va odatlar, falsafiy tushunchalar o'xhash. Ahamiyatli tomoni shundaki, har ikki tilda mavjud bo'lgan bir xil maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi.³

O'zbek va koreys xalq maqollari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har ikkala xalqning og'zaki ijodi oilaviy qadriyatlar, ota-onaga hurmat va farzandlik burchi kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Xususan, o'zbek maqollari to'plamlarida ota-onaning farzand tarbiyasidagi roli, ularning duosining ahamiyati va minnatdorchilik hissi keng yoritilgan. Koreys maqollarida esa, asosan, 효 (hyo) – ota-onaga itoat va hurmat madaniyati asosiy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot uchun o'zbek va koreys maqollarining rasmiy to'plamlari, xalq og'zaki ijodi namunalari va ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Jumladan, o'zbek maqollarining O'zbek xalq maqollari to'plami, koreys maqollarining esa 한국 속담 사전 (Koreys maqollar lug'ati) va folklorshunoslik tadqiqotlari asosiy manbalar sifatida foydalanildi. Bundan tashqari, xalq maqollari orqali mentalitetni tahlil qilish bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy maqolalar ham ko'rib chiqildi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, koreys va o'zbek xalq maqollari oilaviy qadriyatlar, ota-onaga bo'lgan munosabat va farzandlik burchi borasida bir-biriga o'xhashliklarga ega. Shu bilan birga, har bir madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, tarixiy rivojlanishi va diniy qarashlari bilan bog'liqdir.

NATIJALAR:

Ushbu maqola natijalari o'zbek va koreys xalq maqollarida ota-onsa obrazining ifodalananishiga doir bir qator muhim xulosalarni ko'rsatdi:

1.Ota-onaga hurmat va minnatdorchilik tushunchasini ko'rib chiqsak. Har ikkala xalq maqollarida ota-onaga hurmat va minnatdorchilikni ifodalovchi maqollar keng uchraydi. O'zbek maqollaridan " Hurmatingni ota-onang hayotligida qilish kerak " maqoliga koreys maqollaridan "효도는 부모가 살아 있을 때 하는 것" maqoli to'g'ri keladi, ular ota-onaga bo'lgan sadoqat va minnatdorchilikni ta'kidlaydi. Yana misol keltiradigan bo'lsak, "Ona duosi – farzandga madad"

² Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. – М.: Русский язык, 2009. – 76 С.

³ Nazarova Sh.Sh. O'zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi //Innovation. The Journal of social sciences and researches. Volume 2, November, 2024. - P. 84. ISSN:2181-3868 (SJIF-2023:3.812).

maqoliga koreyscha, "부모의 사랑은 바다보다 깊다" maqoli to‘g‘ri kelishini kuzatishimiz mumkin.

2. Ota-onaning duosi va tarbiyaning ahamiyatiga yondashsak, o‘zbek maqollarida "Ota-onaning duosi – farzandga qanot" kabi iboralar tarbiyada ota-onaning o‘rni va ta’sirini aks ettiradi. Koreys maqollarida ham shunga o‘xshash tushuncha mavjud bo‘lib, masalan, "효도하는 자식이 잘 된다" (Ota-onasiga hurmat ko‘rsatgan farzand muvaffaqiyatga erishadi) kabi talqin qilishimiz mumkin. Shu bilan birga, o‘zbekcha "Ona duosi bilan farzand kamol topar" maqoli bilan, koreyscha , "부모의 덕은 하늘보다 높다"(Ota-onaning fazilati osmondan baland) maqolini keltirib o’tishimiz mukin.

3. Farzandning ota-onal oldidagi burchi tomonlama tahlil qilsak, o‘zbek xalq maqollarida "Ota-onangni asra, o‘zingni asragan bo‘lasan", koreys xalq maqollarida esa "효자는 하늘도 도와준다" (Ota-onasiga hurmat ko‘rsatgan farzandga osmon ham yordam beradi) kabi iboralar ota-onaga g‘amxo‘rlik qilishning ahamiyatini ifodalaydi. Shuningdek, yuqorida aytub o’tganimizdek, koreys jamiyatida 효 (hyo – ota-onaga hurmat madaniyati) qadimdan muhim qadriyat hisoblangan bo‘lsa, o‘zbek jamiyatida esa qarilikda farzandning ota-onaga xizmat qilish burchi alohida ta’kidlanishini kuzatishimiz mumkin.

4. Jamiyatda ota-onaning mavqeい va oila strukturasi haqida o’rganadigan bo‘lsak, koreys va o‘zbek jamiyatlarida ota-onal oilaning markazi hisoblanishini bilishimiz mumkin, ammo koreys an’analarida patriarchal tizimning kuchli ta’siri tufayli otaga nisbatan hurmat ancha yuqori ekani ko‘rinadi. Masalan, "아버지는 하늘이다" (Ota osmon kabitir) maqoli buni ifodalaydi. O‘zbek maqollarida esa ota va onanining mavqeи tengroq aks ettiriladi, masalan, "Ota uy – asrandi, ona uy – tirkak" maqoli bunga misol bo‘la oladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ota-onal obrazining aks etishi koreys va o‘zbek xalq maqollarida ko‘plab o‘xshashliklarga ega, lekin ba’zi farqlar ham mavjud. O‘zbek maqollarida ota-onaning mehribonligi va duosining ahamiyati ko‘proq urg‘u olsa, koreys maqollarida esa 효 (hyo) tushunchasi orqali ota-onaga itoat qilishning ijtimoiy burch ekanligi ta’kidlanadi.

MUNOZARA.

Koreys va o‘zbek kabi turli tillardagi maqollarda — Ota-onal siymolari qanday tasvirlanganini o‘rganish madaniy qadriyatlar va munosabatlarga oid

tushunchalarni ochib beradi. Quyidagi maqolada ba'zi bir potentsial sohalarini taqqoslab ko'ramiz.

Farzandlik taqvosiga urg'u: Koreys va o'zbek maqollarida ota-onaga hurmat va itoat muhimligi ko'pincha ta'kidlanadi. Masalan, "부모의 말은 금과 같다" koreyscha maqolini "Ota-onaning nasihat – oltin maslahat" kabi o'zbekcha maqolda yaqol misolini uchratishimiz mumkin.

Ota-onsa yo'l-yo'riqlarining ahamiyati: Hikmatlar ota-onalarning farzandlarining hayotini shakllantirishda muhim rol o'ynashini e'tirof etadi. Masalan, "부모는 자식에게 삶의 지혜를 가르친다" kabi koreys maqolini "Ota-onalar bolalarga hayot donoligini o'rgatadi" kabi maqoli buni yorqin isbotidir.

Umumiyyetafolarlar va tasvirlar: Ikkala madaniyat ham ota-onsa rollarini tasvirlash uchun o'xshash metafora va tasvirlardan foydalanishi mumkin. Misol uchun, ikkalasi ham kuch, himoya va tarbiyani ifodalash uchun "yo'lbarsning ota-onasi" kabi hayvonlar metaforalarini yoki "ildizlar" kabi o'simlik metaforalarini ishlatishi mumkin. O'xshash tomonlari bo'lishi bilan birga bir qancha farqlarni ham uchratishimiz mumkin.

Ota-onsa rollari: Bu jihatdan ham koreys va o'zbek madaniyati o'zaro o'xshash hisoblanadi. O'zbek jamiyatida, ota oilaviy rahbar, bolalarga hayotdagi yo'l-yo'riqlarni ko'rsatuvchi shaxs sifatida o'rghaniladi. Ona esa, ko'proq bolalarga axloqiy tarbiya, mehr-muhabbat, ruhiy qo'llab-quvvatlash va kasb-hunar o'rgatishda ishtirok etadi, shuningdek, uy-ro'zg'or ishlarida ham katta rol o'ynaydi. Koreys jamiyatida ham ota farzandlarini jamiyatda o'z o'mini topishga, muvaffaqiyatlari bo'lishga undaydi. Ota farzandlariga ko'pincha ta'lim va kasb-hunar haqida yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ona esa, oilaning ichki hayotini boshqaradi va ko'pincha bolalarning axloqiy tarbiyasini shakllantiradi. "부모는 자식에게 삶의 지혜를 가르친다" koreys maqoliga, "Ota-onalar bolalarga hayot donoligini o'rgatadi" kabi o'zbek maqollari misol bo'la oladi.

Tarixiy-ijtimoiy mazmun: O'zbek maqollarida mehnat, oilaviy qadriyatlar, oila ichidagi hurmat va jamiyatdagi ahloqiy me'yorlar asosiy ijtimoiy mazmunni tashkil etadi. Jamiyatda yaxshi odob-axloq, farzandlarning tarbiyasi, ota-onaning mas'uliyati, mehnatning qadri qadrlanadi. Misol uchun, "Mehnat – ibodat" Bu maqol mehnatning ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlasa, "Ona mehrini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi" kabi maqollarda o'zbek madaniyatida ona mehrining beqiyosligi va oila ijtimoiy tuzumi juda muhim ahamiyatga egaligini bilib olishimiz mumkin. Koreys madaniyatida ham oila ijtimoiy tuzumi va mehnat qadri haqida ko'plab

maqollar mavjud bo'lib, ular jamiyatda tenglik, muvaffaqiyatga erishish va hurmat ko'rsatish kabi qadriyatlarni aks ettiradi. Misol uchun, "부모 은혜는 하늘과 같다" Bu maqol ota-onan hurmatining ijtimoiy ahamiyatini bildiradi va ota-onan duosi jamiyatda yuqori qadrlanishini ko'rshimiz mumkin.

Maqollarning tuzilishi va talqini: Koreys va o'zbek maqollari o'zlarining jamiyatdagi ijtimoiy o'rni, axloqiy me'yorlar va oilaviy qadriyatlarni bilan bog'liq bo'lib, insonlarni to'g'ri yo'lni tanlashga, mehr-muhabbatni qadrlashga va bir-birlariga hurmat ko'rsatishga undaydi.

Ushbu jihatlarni chuqur o'rganish orqali siz va biz koreys va o'zbek maqollari madaniy me'yorlarni va oilalar ichidagi munosabatlarni qanday aks ettirishi va shakllantirishi haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lisingiz mumkin. Maqollar ko'p qirrali bo'lib, turli talqinlar uchun eshiklarni ochishi mumkin.

XULOSA.

Umuman olganda, koreys va o'zbek maqollarning lingvistik-madaniy tahliliga doir fikrlari bu ixcham hikmat ifodalarining boyligi va murakkabligini ko'rsatadi. Maqollarni turli madaniyatlarda o'rganish orqali biz insoniy qadriyatlarni, madaniy istiqbollar va tilning ma'noni yetkazish va bilimlarni uzatish kuchi haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 С.
2. Nazarova Sh.Sh. O'zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi //Innovation. The Journal of social sciences and researches. Volume 2, November, 2024. - P. 84. ISSN:2181-3868 (SJIF-2023:3.812).
3. Hamroyeva Sharifa Shukur Qizi, . (2023). ISSUES OF TRANSLATING NATIONAL COLORING WORDS - REALIAS IN THE NOVEL “NAVOI” BY OYBEK. International Journal Of Literature And Languages, 3(04), 29–33. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue04-06>
4. Hamroyeva Sharifa Shukur Qizi, . (2023). THE ANALYSIS OF THE ENGLISH TRANSLATIONS OF ABDULLA KADIRI'S “O'TKAN KUNLAR”. American Journal of Philological Sciences, 3(05), 82–87. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume03Issue05-15>.
5. Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. – М.: Русский язык, 2009. – 76 С.
6. Казакова, Д. Г. (2016). Обучение для всех- работа с детьми с ограниченными возможностями в условиях инклюзивного образования. Научный журнал, (11 (12)), 76-77.

7. Gaffarovna, K. D. (2023). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF USING DIGITAL LITERACY. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 12, 42-43.
8. Gaffarovna, K. D. (2022). Theoretical Foundations and Features of Teaching English for Special Purposes. Miasto Przyszłości, 29, 201-203.
9. Казакова, Д. Г. (2018). Роль личностно-центрированного обучения в совершенствовании системы образования. Достижения науки и образования, (5 (27)), 63-64.
10. Мирзакулова, Н. И., & Казакова, Д. Г. (2014). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА. In Филология и культурология: современные проблемы и перспективы развития (pp. 15-17).